

**QISHLOQ XO`JALIK MAHSULOTLARINI QAYTA
ISHLASHNING USULLARI.****Sunnatillayeva Mavluda Quдрat qizi**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Qishloq xo`jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi yo`nalishi 4-kurs QXT-178-21 guruh talabasi E-mail:sunnatillayevamavluda@gmail.com

Ishmuxamedova Ra`no Choriyevna

*Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Qishloq xo`jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi kafedrası dotsenti, q.x.f.f.d. (PhD)
E-mail:ranoishmuxamedova40@gmail.com*

ANOTATSIYA. Bugungi kunda qayta ishlangan qishloq xo`jaligi mahsulotlariga talab katta. Shuning uchun ishlab chiqaruvchilarning asosiy maqsadi sifatini oshirish va assortimentini kengaytirishdir. Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarish texnologiyalari qishloq xo`jaligida mahsulotlarni yetishtirish yoki qayta ishlash bilan bog`liq har qanday jarayonni yaxshilashga yordam beradigan barcha usullardir. muayyan texnologiya usulini tanlash iqlim sharoitidan tortib qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishi joylashgan hududning kattaligiga qarab ko`plab omillarga bog`liq. Hozirgi vaqtda texnologiya rivojlanishining bir necha yo`nalishlari mavjud.

**Kalit so`zlar;** qishloq xo`jaligi, termosterilizatsiya, antiseptiklar, kimsterilizatsiya, insektitsident, germetik.

АННОТАЦИЯ. Сегодня большой спрос на переработанную сельскохозяйственную продукцию. Поэтому основной целью производителей является повышение качества и расширение ассортимента. Агротехнологии производства-это все методы, которые помогают улучшить любой процесс, связанный с выращиванием или переработкой сельскохозяйственных продуктов выбор того или иного технологического метода зависит от многих факторов, начиная от климатических условий и заканчивая размером территории, на которой расположено сельскохозяйственное производство. В настоящее время существует несколько направлений развития технологии.

Ключевые слова; сельское хозяйство, термостерилизация, антисептика, кимстерилизация, инсектицид, герметик.

ANOTATION. Today, processed agricultural products are in great demand. Therefore, the main goal of manufacturers is to improve their quality and expand their range. Agricultural production technologies are all methods that help improve any process related to the cultivation or processing of products in agriculture. the choice of a particular technology method depends on many factors, from climatic conditions to the size of the area where agricultural production is located. Currently, there are several areas of technology development.

Keywords; *agriculture, thermosterilization, antiseptics, kimsterilization, insecticide, hermetic.*

Mavzuning dolzarbligi. Termolizatsiya. Bu usul mahsulotlarga yuqori harorat yordamida ishlov beriladi. Mahsulotlarni 100 C da va undan yuqori haroratda qizdirilganda har qanday tirik mavjudod halok bo'ladi.

Har xil mahsulotlarga ularning fizik holatiga, kimyoviy tarkibiga va mikroblar bilan ifloslanganligiga qarab tur xil haroratdagi ta'sir ko'rsatiladi. Eng ko'p termolisterilizatsiyaning tarqalgan xili germetik [tunuka va shisha] tarada konservalashdir. Oldindan maxsus yo'l bilan tayyorlangan xomashyo bankalarga solinib, germetik holda berkitilib so'ngra ularga issiqlik ishlov beriladi. Shu usul bilan sabzavot, meva, go'sht, baliq, sut va turli aralashma konservalar tayyorlanadi.

Kimsterilizatsiya. Mahsulotlarga kimyoviy vositalar yordamida ishlov beriladi, ko'pincha mikroorganizmlarni o'ldiruvchi moddalar [antiseptiklar] ishlatiladi. Ammo bunday moddalardan foydalanish chegaralangan, chunki ko'pchilik kimyoviy vositalar inson uchun zaharlidir. Ma'lumki rivojlangan mamlakatlarning davlat zaxirasida aholini 10 yil ichida ta'minlashga yetarli oziq-ovqat zaxirasi bo'lmog'i lozim. Ayniqsa bu hol aholi zich joylashgan katta shaharlar va ishlab chiqarish markazlari uchun muhim ahamiyatga egadir.

Uni tashkil qilish uchun birdan-bir vosita mahsulotlarga sovuqlik yordamida ishlov berishdan iborat.

Sun'iy sovuq mabaini qo'llash faqat oziq-ovqat sanoatini rivojlanganligi emas, balki xalq xo'jaligining o'zga sohalarini [kimyo va oziq-ovqat sanoati, transport, tibbiyot, havoni kondensiyalash, sport komplekslari va boshqalar ham taraqqiy etkanligini dalolatdir.

Hozirgi kunda sovuqlik xo'jaligining rivojlanish uchun oziq-ovqat mahsulotlariga sovuqlik yordamida ishlov berishni takomillashtirishga va saqlashga iste'mol uchun tayyor bo'lgan muzlatilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishga va shu maqsadlarda yangi jihozlar yaratishga, hamda sanoatni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga alohida talablar yaratilmoqda. Shu bilan birga sovuqlik mashina qurilmalari, tayyor taom ishlab chiqarish texnologiyasi va ularni zudlik bilan muzlatuvchi texnika, qadoqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini sovutgichlarga joylashni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, sovutgichlarning qurilma-izolatsiya konstruksiyalari va sovutgich transport vositalarining ham turlari takomillashmoqda. Shu sababli sovutish texnikasi va texnologiyasining har bir yo'nalishida ishlovchi yetuk mutaxassislariga zamonaviy talab oshib bormoqda.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. <https://fabricators.ru>.
2. <https://agroprod mash-expro.ru>.
3. A.J.Choriyev, Q.O.Dodayev, T.A.Ismoilov, D.T.Qoraboyev, „Qishloq xo'jalik mahsulotlarini konservalash va saqlash texnologiyasi [go'sht, sut, baliq, meva-sabzavot]. Toshkent. 2016, B-7, B-8, B-9.